

**TARJIMA VA MADANIYAT,
TARJIMADA MADANIYATGA OID MUAMMOLAR**

Turg'unbayeva Noila Dilshod qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

1 -bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Tarjima nafaqat tillarni balki, madaniyatlarni bog'laydigan ko'prikdir. Har bir til o'ziga xos madaniy kontekstga ega bo'lib, tarjima jarayonida bu madaniy jihatlarni hisobga olish muhimdir. Madaniyatga oid elementlarni tarjima qilish qiyin bo'lib, tarjimonlar ko'pincha lingvistik va madaniy to'siqlarni yengib o'tishga majbur bo'ladilar. Ushbu maqolada tarjima va madaniyat, tarjimada madaniyatga oid muammolar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat, madaniy realliyalar, urf-odat va an'analar, diniy va tarixiy kontekst, hazil va yumor, transliteratsiya.*

Kirish.

Madaniyat va tarjima bir birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Tarjima til orqali madaniyatlarni bog'laydi, chunki har bir til jamiyatning urf-odatlarini, qadriyatlarini va e'tiqodlarini aks ettiradi. Shuning uchun tarjimonlar faqat so'zlarni emas, balki ular ortidagi madaniy mazmunni ham to'g'ri ifodalashga intilishi kerak.

“Madaniyat” so'zi birinchi marta ingliz olimi Edvard B.Taylorning 1871-yilda nashr etilgan “Primitive Culture” kitobida foydalanilgan. Taylorning fikriga ko'ra, madaniyat bilim, ishonch, qonun, an'analar va jamiyatning turli a'zolari tomonidan qabul qilingan turli odatlarni o'z ichiga oladi. Tarjima biror matnning shunchaki ekvivalenti emas, bu asl nusxani qayta yozishdek qiyin va murakkab jarayon. Bu bir madaniyatning boshqasiga ta'siri. Tarjima faoliyatini tushunish uchun, biz madaniyat va til tushunchalarini aniqlashtirib olishimiz, til va madaniyat o'rtasida aloqalariga e'tiborimizni qaratishimiz lozim.

Madaniyat elementlarini tarjima orqali boshqa til muhitiga uzatish jarayoni murakkab masala. Madaniyat kundalik turmush tajribalarining murakkab to'plami, u tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik urf-odatlar va an'analarini o'z ichiga oladi.

Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyatining uch turiga qaratilga: biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy; biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun - kollektiv; jamiyat o'zini aks ettirgani uchun – ifodaviy.

Madaniy realliyalar. Har bir madaniyatda o'ziga xos realliklar bor. Masalan o'zbek madaniyatidagi “dasturxon” atamasi ingliz tilida “tablecloth” deb tarjima qilinsa, uning madaniy ma'nosi yo'qoladi. Chunki u shunchaki mato emas, balki mehmondo'stlik belgisi hisoblanadi.

Urf-odat va an'analar. Bayramlar, marosimlar va urf-odatlar tarjimada murakkablik tug'diradi. Maslan, o'zbeklarning “Navo'z” bayramini boshqa madaniyatga tushuntirishda qo'shimcha izoh talab etiladi.

Diniy va tarixiy kontekst. Diniy va tarixiy matnlarni tarjima qilishda e'tiqod va tarixiy voqealarni to'g'ri tushuntirish muhim. Maslan, Qur'on tarjimasida diniy mazmun saqlanishi uchun chuqur bilim talab etiladi.

Idioma va freziologizmlar. Idiomalar so'zma-so'z tarjima qilinsa, tushunarsiz bo'lib qoladi. Maslan, o'zbekcha, “Tili zahar” - “Poisonous- tongue” deb tarjima qilinsa, asl ma'no yo'qoladi. To'g'ri tarjima: “Harsh-tongued” yoki “Sharp-tongued” .

Hazil va yumor. Yumorni tarjima qilish qiyin, chunki u ko'pincha tilga va madaniyatga xos bo'ladi. Milliy latifalar, kulgili hikoyalar boshqa tillarda o'z ma'nosini yo'qotishi mumkin.

Madaniyatga mos tarjima yechimlari:

Ekivalent topish. Madaniyatga yaqin ekvivalentlarni izlab ularni ishlatish.

Moslashtirish (Adaptatsiya). Matni yangi madaniy kontekstga moslashtirish.

Trnsliteratsiya. Madaniy soʻzlarni asl koʻrinishida qoldirish (masalan, “pilaf” yoki “sushi”).

Izohli tarjima. Madaniy tushunchalarni qoʻshimcha izoh bilan tarjima qilish.

Ijodiy yondashuv. Tarjimon matnning maʼno va hissiyotini saqlab qolish uchun ijodiy yondashishi kerak.

Shunday qilib, tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea- hidisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikkintilni emas, balki ikki madaniyat taqqoslaydi. Madaniyatlarining farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent boʻlmasligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, eʼtiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalarning turlichaligi tufayli boʻlishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tarjima tilida yangi yoʻl va usullarni topishi zarur.

Xulosa

Madaniyat va tarjima bir butun jarayondir. Tarjimada nafaqat til, balki uning madaniy mazmuni ham oʻz aksini topishi kerak. Tarjimon nafaqat soʻzlarni tarjima qilivchi mutaxassis, madaniyatlar oʻrtasidagi vositachi ham hisoblanadi. Shu sababli tarjimonning linivistik bilimlari bilan birga madaniy tafakkuri va madaniy dunyoqarashi ha chuqur boʻlishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andre Lefevere, *Tranation/History/Culture*. Australia.2001
2. Haberland H. *Linguistics and pragmatic // Journal of pragmatics/ - Amesterdem: John Benjamin's, 2001.*
3. Scholar.google.com internet sayti
4. Hornby A. S. *Oxford student's Dictionary of Current English*. – Moscow, Oxford, 1984
5. Peter Newmark. *A textbook of Translation*. Singapore. 2000